

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



«Tasdiqlayman»
NamMQI rektori: Sh. T. Ergashev
2024 yil



YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohasi: 310 000 - Ijtimoiy va hulq-atvorga mansub fanlar
410 000 - Biznes va boshqaruv

Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Fan/modul kodi CONREUZ4	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 4
Fan/modulturi Tanlov	Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklam a (soat) 120
	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	30m/30a	60
2	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>O'zbekistonda yangi taxrirdagi konstitutsiyaning o'zgartitish zaruriyati. -oliy ta'lim muassasalari talabalarida O'zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida mustahkamlangan muhim normalarga doir bilimlarini oshirish hamda amalda qo'llay olish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida talabani o'rni, o'zligini anglatish, shaxs, fuqaro maqomini tushunib yetishidan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi: Oliy ta'lim muassasalari talabalarida O'zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida mustahkamlangan muhim normalarga doir bilimlarini oshirish hamda amalda qo'llay olish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – O'zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning ham asosiy g'oyasi inson qadrini ulug'lash, uning asosiy huquqlarini yanada mustahkamlash malakasini shakllantirish.</p> <p>Kasbga xos ko'nikma va malakalarning shakllanishida Konstitutsiyasini mazmun-mohiyatini o'rganish ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish shakllari, metodlari, ta'limni boshqarish texnologiyalarini mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasida mustahkamlangan normalar, egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash, talabani mustaqil ta'lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p>		

1-mavzu. Konstitutsiyaviy islohotlar hamda uning zarurati

Konstitutsiyaviy islohotlar mohiyati, ularning zarurati, Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, Konstitutsiyaviy islohotlardan ko'zlangan natijalar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida "Bosh maqsadimiz – har bir yurtodoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri, O'zR 30.04.2023 y. referendumda qabul qilingan, O'zR 01.05.2023 y. O'zR 837-son Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq tasdiqlangan)ning 44, 50, 51, 57, 77, 79, 115-moddalarida ta'limga oid normalar belgilangan.

Shu ma'noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko'rilgan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o'tkazilganligi, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi.

2-mavzu. O'zbekiston-Ijtimoiy davlat tushunchasi

O'zbekiston-Ijtimoiy davlat tushunchasi, uning mazmun mohiyati, ushbu tushunchaning qo'llanishi, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalari. O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan. xar bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun, shart-sharoit yaratish majburiyatini yaratish uchun barcha resurslarni ijtimoiy adolatli tamoyillari asosida taqsimlangan. **Ijtimoiy davlat** har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifati ta'lim, kafolati tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolati ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolati davlatdir.

3-mavzu. O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat

Suverenitet, demokratiya tushunchasi, huquqiy va dunyoviy davlat belgilari hamda xususiyatlari, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy

davlat sifatida O'zbekiston Respublikasining huquq va majburiyatlari.

4-mavzu. Insonning shaxsiy hamda siyosiy huquqlarini mustahkamlash masalalari

Inson huquqlari tushunchasi, tasnifi, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, Inson huquq va erkinliklari kafolatlari. Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

5-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tushunchasi va ularning shakllariga oid munosabatlar. Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolati haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

6-mavzu. Fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi siyosiy huquqlari

Fuqarolar- jamiyat-davlat tushunchalari, fuqarolarning davlat boshqarishdagi huquqlari. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklavlar qonun bilan belgilanadi.

7-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining madaniy va ekologik huquqlari.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni ta'minlash masalalari, fuqarolarning ta'lim olish huquqiga oid munosabatlar. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipi muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

8- mavzu. O'zbekiston Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirishga doir normalar

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati, ularning tarmoqlarga bo'linishi, davlat hokimiyatini tashkil etish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari faoliyatiga doir o'zgarishlar. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Qonunning yangi tahririni qabul qilish hamda shu orqali sohada qonuniyligni ta'minlashning eng samarali mexanizmlarini yaratish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojiga mos bo'lishini ta'minlash zarurligi har tomonlama asoslab berilgan.

9-mavzu. Konstitutsiya ustunligi va muhofazasi

Konstitutsiya ustunligi va qonun ustunligi, ularning o'zaro nisbati, Konstitutsiya ustunligini ta'minlovchi normalar, Konstitutsiya muhofazasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko'zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi - bu qonun ustuvorligi hisoblanadi. Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda xalq irodasining

ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari orqali yoki o'zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

10-mavzu. Fuqarolik jamiyati institutlarining mazmun mohiyati
Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot tushunchalari. Oila jamiyatning asosiy prinsipi, nikoh, voyaga etmaganlar, ota-onalarning va farzandlarning jamiyatdagi vazifalari. O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalar sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

11-mavzu. O'zbekiston Konstitutsiyada Oila, bolalar va yoshlar siyosati
Oila jamiyatning asosiy prinsipi, nikoh, voyag actmaganlar, ota-onalarning va farzandlarning jamiyatdagi vazifalari. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Ota-onalar va ularning o'rni bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdir. Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

12-mavzu. Konstitutsiyada Oliy Majlis deputatlarining vakolatlari va burchlari

Oliy Majlis iikki palatadan iborat, besh yil, bir yuz ellik deputat, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari quyidagilardan, parlament tekshiruvini o'tkazish. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi. Qonunchilik

tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega.

13-mavzu. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining vazifalari va burchlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanish tartibi, Prezidentning vakolatlari va burchlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tiini yaxshi biladigan, bevosita saylovga kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

14-mavzu. Vazirlar mahkamasining fuksiyalari

Vazirlar Mahkamasini vazifalari, qaror va farmoyishlari, Bosh vazir tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari va vazirlardan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiradi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo'ladi;

15-mavzu. Sud hokimiyati, Advakatura, Prokuraturalar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar

Sud, Advakatura, Prokuratura tushunchalari, inson manfaatlari, qonun ustivorligi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi. Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori

boshchilik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi

III. Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarining uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1- mavzu. Konstitutsiyaviy islohotlar hamda uning zarurati
 - 2- mavzu. O'zbekiston-Ijtimoiy davlat tushunchasi
 - 3- mavzu. O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat
 - 4- mavzu. Insonning shaxsiy hamda siyosiy huquqlarini mustahkamlash masalalari
 - 5- mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari
 - 6- mavzu. Fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi siyosiy huquqlari
 - 7- mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining madaniy va ekologik huquqlari.
 - 8- mavzu. O'zbekiston Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirishga doir normalar
 - 9- mavzu. Konsitutsiya ustunligi va muhofazasi
 - 10- mavzu. Fuqarolik jamiyat institutlarining mazmun mohiyati
 - 11- mavzu. O'zbekiston Konstitutsiyada Oila, bolalar va yoshlar siyosati
 - 12- mavzu. Konstitutsiyada Oliy Majlis deputatlarining vakolatlari va burchlari
 - 13- mavzu. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining vazifalari va burchlari.
 - 14- mavzu. Vazirlar mahkamasining fuksiyalari
 - 15- mavzu. Sud hokimiyati, Advakatura, Prokuraturalar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia quirmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish” fanidan mustaqil ta'lim va mustaqil ishla ryangi innovatsion va kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan holda yozma va o'g'zaki shaklda olinadi. Bunda uchta o'zaro bog'liq anglash va ijod qilish faoliyatini o'zi chiga oladi: mashg'ulotlarda olingan axborotni qayta ishlash, qabul qilinganlarni tizimlashtirish, mustaqil shakllantirish, xulosalash va umumlashtirish.

Mustaqil ta'limning birinchi, ikkinchi va uchinchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan tartibda bajarish talabaga maksimal baho olish imkonini beradi. Ular mos ravishda birinchi va ikkinchi oraliq nazorat baholariga qo'shiladi.

Amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish. Bunda talaba har bir amaliy mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va berilgan mavzuni konspektlashtirish uchun kutubxonada ishlashi, elektron resurslardan foydalanishi lozim

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. Esse yozish.

Bunda talaba esse uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu tanlab oladi va tanlagan mavzusini esse shaklida yozma bayon qiladi. U mavzuning mohiyatini tushuntirishi, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lishi zarur.

2. Taqdimot tayyorlash.

Bunda talaba taqdimot uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu tanlab oladi va tanlagan mavzusiga taqdimot tayyorlaydi. U mavzuning mohiyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tushuntirishi, bilishi, aytib berishi kerak.

3. Krossword tuzish.

Bunda talaba crossword uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu tanlab oladi v atnlagan mavzusiga krossword tuzadi. Krossword talabaga yangicha yondashuv va fikrlashga yordam beradi

ON uchun mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning tarixiy rivojlanishi.
2. Prezident O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilish tashabbuskori, yaratuvchisi va kafili.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyat hayotida

<p>3</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Konstitutsiyaga yangi kiritilgan asosiy huquq va erkinlarning mazmun-mohiyatini bilish;</p> <p>Kiritilgan yangi normalarni sharhlayolish ko'nikmasini bilishi kerak;</p> <p>“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganish” natijasida atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida fanining o'rmini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning davlatdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganish, chuqur bilish, internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g'oyalarga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.</p>	<p>4</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
--	---

<p>tutgan o'rmi v ahamiyati.</p> <p>4.O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari.</p> <p>5.O'zbekiston -xalqaro munosabatlarning tenghuquqli ishtirokchisi.</p> <p>6.O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti.</p> <p>7.Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish. Oila instituti va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.</p> <p>8.Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni. Ijtimoiy davlat tushunchasi. Dunyoviy davlat tushunchasi.</p> <p>9.Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari.</p> <p>10.Sud tizimi va huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar</p> <p>11.Milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.</p> <p>12.Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar.</p> <p>13.Davlat hokimiyatining tashkil etilishi.</p> <p>14. O'zbekiston Respublika Prezidentning vakolatlari.</p> <p>15.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlari.</p> <p>16.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari.</p> <p>17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari</p> <p>18. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi.</p> <p>19. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir.</p> <p>20.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat.</p> <p>21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari</p> <p>22. Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari.</p> <p>23.Sud hokimiyati.</p> <p>24. Advokatura.</p> <p>25. Prokuratura organlarini tashkil etish.</p> <p>26.Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.</p> <p>27.O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.</p> <p>28.O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'matiladi.</p> <p>29.Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligi.</p> <p>30.Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydi.</p>
--

5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o‘rganish” fani kursini o‘qitish ta’limning kredit tizimi asosida ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test topshiriqlarini muvaffaqiyatli topshirishi kerak bo‘ladi.</p> <p>Fandan talabalarni baholash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi NIZOM asosida amalga oshiriladi.</p>
6	<p>O‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.– T.: O‘zbekiston, 2023. 2. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil. – 180 b. 3. I.Bekov. Konstitutsiyada o‘qituvchi maqomi:Uchinchi Rennansning mustahkam zamini. YangiO‘zbekiston” gazetasi №52 - son 16-mart 2023-yil. 4. P.Магенов. Новые принципы государственного устройства. Правда востока” № 100 от 24 мая 2023 года. 5. Sh.Ziyamuhamedova. Shaxsga doir ma’lumotlar muhofazasi. “Huquq” gazetasi № 20 - son 18-may 2023-yil. 6. F.Isaeva. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o‘zgardi? “Inson va qonun” gazetasi № 19 - son 16-may 2023-yil. Qo‘shimcha adabiyotlar 7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2003. 8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2001. 9. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T.: Adolat, 2001. 10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.– T.: Adolat, 2005. 11. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Adolat, 1999. 12. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.– T.: Adolat, 1998. 13. O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 1998. 14. O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi.– T.: Adolat, 2002.

15.	<p>15. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni. 1992 yil 2 iyul. (O‘zbekistonning yangi qonunlari, 6-son.) – T.: Adolat, 1993.</p> <p>16. O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni (yangi taxriri). 2002.</p> <p>17. O‘zbekiston Respublikasi «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni 26 aprel 1996. - T.: Xega –Print, 2001.</p> <p>18. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkiniklarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, 2000 yil 25 may.</p> <p>19. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi qonuni. Xalq so‘zi, 2001 yil 13 fevral.</p> <p>20. O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni. (Yangi taxriri). 2002.</p> <p>21. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2019</p> <p>22. “Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi”. “Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro BILL”. 1993y.</p> <p>23. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt. “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnoma. – T.: “Adolat, 36-bet.</p> <p>24. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt. “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnoma.T., “Adolat, 59-bet.</p> <p>25. «Ayollar huquqi to‘g‘risida»gi konvensiya. (Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar, T-2004).</p> <p>26. «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiya. Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalar T.2004.</p> <p>Axborot manbalari: www.ziyonet.uz. www.lex.uz www.tsul-library.uz www.konstsud.uz www.senat.uz www.parliament.uz</p>
	<p>Namangan muhandislik-qurilish institute tomonida nishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8	<p>S.Dehqonova–Namangan muhandislik-qurilishinstituti, o‘qituvchi</p>
9	<p>Taqrizchi: A.Mirzaaxmedov Namangan muhandislik-texnologiya instituti falsafa fanlari doktori professor.</p>